Xalq deputatlari Romitan tumani Kengashi
Q A R O R I

2023 - yil 24 - noyabr VI-93-212-2-40-K/23 Romitan tuman hokimligi

Romitan tumani mahalliy budjet 2023-yil uchinchi chorak qo‘shimcha manbalar hisobidan ajratilgan mablag'lar to'g'risida taklif.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022 yil 8 apreldagi KQ-331-IV-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 126-moddasiga asosan tuman mahalliy budjet 2023-yil uchinchi chorak qo‘shimcha manbalar hisobidan ajratilgan mablag'larni yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflarni ko‘rib chiqib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Romitan tumani mahalliy budjet 2023-yil uchinchi chorak qo‘shimcha manbalar hisobidan ajratilgan mablag'lar to'g'risidagi tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i U.Jumayevning taklifi ma’qullansin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (U.Jumayev)ga:

- O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksi talablari asosida tuman mahalliy budjetining parametrlariga tegishli o‘zgartirishlarni kiritish, belgilangan tartibda xarajatlar smetalari va shtatlar jadvallarini ro‘yxatdan o‘tkazish;

- mazkur qarorning 1-ilovasiga muvofiq ko‘zda tutilgan tadbirni o‘z vaqtida moliyalashtirish uchun tuman hokimi farmoyishlari loyihalarini belgilangan muddatda tayyorlash;

- ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi yuzasidan tizimli monitoring yuritish hamda iqtisod qilingan mablag‘larni tuman mahalliy budjetiga to‘liq qaytarish bo‘yicha tegishli o‘zgartirishlar kiritishga ruxsat etilsin.

3. Xalq deputatlari Romitan tuman Kengashining 2023-yil 7-noyabrdagi

VI-88-203-2-40-K/23-son qarorning 1-ilovadagi 2-3-4-qatorlarda ko‘rsatilgan tadbirlarda ajratilgan mablag‘lar miqdori 2-ilovaga muvofiq o‘qilsin.

4. Tuman g‘aznachilik bo‘linmasiga:

- ajratiladigan mablag‘lar bo‘yicha shartnomalarni o‘z vaqtida ro‘yxatdan o‘tkazish va xarajatlarni belgilangan tartibda amalga oshirilishini ta’minlasin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (O.Ismatov)ga topshirilsin.

Tuman Kengashi raisi **Barnoyev U. I.**

Xalq deputatlari Romitan tuman
Kengashining
2023-yil 24-noyabrdagi
VI-93-212-2-40-K/23-son qaroriga
1-ilova

Mahalliy byutjet 2023-yil uchinchi chorak uchun hisobidan ajratilgan mablag'lar to'g'risida taklif

№	Tadbirlar nomi	Ajratilgan mablag' miqdori	Mablag' oluvchining nomi
1	“Keksalar maslahati” guruhlari raislarini rag‘batlantirish (PQ-92)	23,0	Romitan tuman hokimligi
2	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 5 maydagi PQ 234-sonli qarori hamda Buxoro viloyat hokimining 2023 yil 3-noyabrdagi 1/6896-2-sonli xati ijrosini ta’minlash	99,0	Romitan tuman hokimligi
x	**Жами**	**122,0**	x

Xalq deputatlari Romitan tuman Kengashining
2023-yil 24-noyabrdagi
VI-93-212-2-40-K/23-son qaroriga
2-ilova

Mahalliy byutjet 2023-yil uchinchi chorak uchun hisobidan ajratilgan mablag'lar to'g'risida taklif			
№	**Tadbirlar nomi**	**Ajratilgan mablag' miqdori**	**Mablag' oluvchining nomi**
1	“Ayollar daftari”ga kiritilgan fuqarolarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga	365,0	Romitan tuman hokimligi
2	“Yoshlar daftari”ga kiritilgan fuqarolarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga	179,0	Romitan tuman hokimligi
3	"Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash" jamg‘armasiga o‘tkazib berish choralari ko‘rish	12,0	Romitan tuman hokimligi